

## **BADIIY ASARNI O‘QITISHDA SARLAVHANING O‘RNI**

**Hamrayev Komiljon O‘lmasovich,**  
ToshDO‘TAU dotsenti,  
Toshkent sh., O‘zbekiston.  
Tel: +998901873886,  
e-mail: [khamrayev@navoiy-uni.uz](mailto:khamrayev@navoiy-uni.uz)

***Annotatsiya.** Maqola badiiy asar sarlavhasi haqida. Unda o‘zbek hikoyalariga sarlavha qo‘yish stilistikasining o‘ziga xos xususiyati hamda yozuvchining badiiy g‘oyasini ifodalovchi jihatlari o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Sarlavha, kompozisiya, syujet tizimi, badiiy obraz, badiiy detal, badiiy g‘oya, majoziy ma‘no, kinoya, hikoya janri.*

***Аннотация.** Статья о заглавие в жанра рассказа. В классифицируется и нем изучается стилистика подбора заглавие для узбекских рассказов, своеобразные стороны литературного замысла писателя.*

***Ключевые слова:** Заглавие, композиция, сюжетная система, художественный образ, художественная деталь, художественная идея, аллегорических смысл, жанр рассказа.*

***Annotation.** About the article the title of a fictional work. In it particular features of stylistics in choosing title for uzбек stories and the points revealing the fictional idea of a writer were learned.*

***Key words:** Title, composition, subject, artistic subject, artistic images, artistic detail, artistic spiritual meaning, irony, stories or genre.*

Sarlavha – badiiy asarning eng muhim qismi. Unda asar hayotining chin mazmuni aks etadi. Sarlavha ayni shu xususiyati bilan badiiy asar kompozisiyasining unsuri hisoblanadi. “Aniqlik va qisqalik nasrning birinchi ustunligidir. U fikrni talab etadi. Busiz go‘zal hikoya hech narsaga xizmat qilmaydi. Asar sarlavhasi bir yoki bir nechta so‘zda ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan fikrni o‘zida aniq mujassam etishi, nomlanishidanoq o‘quvchini o‘ziga jalb qilishi lozim. Bu juda ham azobli, ayni ichog‘da rohatlidir” [4, 136].

Ayrim yozuvchilar badiiy maqsadlaridan kelib chiqib sarlavha tanlasalar, aksariyat asarlar yaratilganidan so‘ng ijodkorning o‘y-mushohadasi, tanlovidan keyingina o‘z sarlavhasiga ega bo‘ladi.

Ijodkor matn mazmunini ma‘lum bir so‘z, yoxud jumlagi jo qilar ekan, badiiy asar qasrining kalitini sarlavhada bekitadi. Sarlavha ijodkorning badiiy niyati, asar g‘oyasi, obrazlar tizimi va barcha unsurlarni yagona fokusga jamlovchi asar tarkibidagi mitti asardir.

Xo‘sh, sarlavhaning stilistik xususiyati va yozuvchining badiiy niyatini ifodalashdagi o‘rni nimalarda ko‘rinadi? Dastlab, sarlavhaga badiiy asar qismi

sifatida qanday vazifalar yuklatiladi? Ijodkorlar sarlavhani qanday omilga asoslanib, qaysi usulda tanlaydilar?

Sarlavha badiiy asarning ma’noviy qatlamlari bilan botiniy aloqada bo‘ladi. Shuning uchun ham badiiy asar o‘qilib, tushunilgandan so‘nggina uning mohiyati oydinlashadi. Yuqoridagi fikrlarga tayanib, sarlavhaga xos vazifalarni muxtasar satrlarda muqoyasa qilsak:

- Sarlavha badiiy asar kompozitsiyasining vositasi sifatida keladi;
- Sarlavha ijodkorning badiiy niyatini o‘zida mujassamlashtiradi;
- Sarlavha badiiy asar g‘oyasidan xabar beradi;
- Sarlavha o‘quvchiga badiiy asar mazmuni tomon yo‘l ko‘rsatuvchi yo‘lchi yulduz vazifasini bajaradi;

Sarlavha o‘quvchining e’tiborini badiiy asarga jalb qiluvchi poetik bo‘lakdir.

Badiiy ijodning epik, lirik va dramatik turiga tegishli har qanday janrda yozilgan asarning sarlavhasi bo‘lishi tabiiy hol. Bu esa, sarlavha tanlash stilistikasining xilma-xilligidan dalolatdir. Shu bois epik turning kichik janri – hikoya sarlavhasi haqida to‘xtalsak.

XX asrning 2-yarmiga kelib o‘zbek hikoyalari mavzu ko‘lami, yangicha ifodalash yo‘cini hamda syujet va kompozitsion jihatdan o‘zgarib borganligini ko‘ramiz. Ayniqsa, o‘tgan asrning 60-80 yillariga kelib inson obraziga turli rakursda yondashish, ijod maydoniga zamonaviy personaj va qahramonlarni olib kirish kuchaydi. Mustaqillik davri hikoyalarida esa inson ruhiyatidagi evrilishlarni tabiat fonida ifodalash, voqelikni falsafiy tafakkur bilan mushohada qilish, jahon adabiyoti tajribalaridan foydalanish kabi jihatlar ko‘zga tashlanadi. Bu hikoya janrining imkoniyatlarini bir pog‘ona yuqoriga ko‘tardi. Fikrimizni oydinlashtirish uchun hikoyaning eng kichik qismi – sarlavhaga murojaat qilsak.

Shartli ravishda o‘zbek hikoyalaridagi sarlavhalarni quyidagicha tasniflash o‘rinli bo‘ladi:

1. Hikoya tarkibidan o‘rib chiquvchi sarlavha:
  - a) Detal sarlavha;
  - b) Obraz sarlavha;
  - s) Syujet sarlavha
2. Ma’juziy sarlavha:
  - a) Kinoya sarlavha;
  - b) Tazod sarlavha;
  - s) Falsafiy sarlavha.
3. Ruhiy – emosional sarlavha.



4. Xronotop sarlavha.

1. **Hikoya tarkibidan o‘sib chiquvchi sarlavha** asar voqealarini uyushtiruvchi, ijodkor badiiy niyati bilan bog‘liq detal, obraz yoki syujet chizig‘iga asosan tanlanadi.

a) **Detal sarlavha** hayotni tipiklashtiruvchi asosiy vositalardan biridir. Hatto butun boshli bir hikoya detal zamirida qurilishi ham mumkin [1, 470-473]. Shu bois badiiy detal hikoyani harakatga keltiruvchi dvigatel vazifasini bajaradi. Bunday hikoyalar sirasiga A. Qahorning “Anor”, Sh. Xolmirzayevning “Oqtosh”, A. A‘zamning “Tiqin”, N. Eshonqulning “O‘pqon”, “Bitik”, A. Ibodinovning “Bir tomchi yosh” kabi hikoyalarni kiritish mumkin. Mazkur tipdagi sarlavhali hikoyalarda badiiy detal zimmasiga ulkan ma‘no yuklanadi. Hikoya sarlavhasini ifodalab kelgan so‘z yoki so‘z birikmasi badiiy matn tarkibidan o‘rin oladi. “Ma‘sumaning ko‘zlari tubida ham allaqachonlardan beri payt poylab yotgan bir tomchi yosh sizib chiqib kipriklariga ilashdi, so‘ng oftobda qoraygan yuzida iz qoldirib, atlas ko‘ylagiga dumaladi. Unga ham singimay, yerga oqib tushdi” [3, 384]. Yoki “Oqtosh hamon mening xonamda turibdi, suzish bo‘yicha olgan har xil sovg‘a-kuboklarim safida” [5, 222].

- Hikoya sarlavhasiga chiqarilgan detal ayrim nuqtalarda umumiylik kasb etadi. Badiiy detal hikoya qismlarini tutib turuvchi vosita bo‘lib, personajlar o‘rtasida yuz beradigan qizg‘in munosabatlarga sababchi bo‘ladi. Shuningdek, obrazlar ruhiyatini ochuvchi unsur sifatida ifodalanadi.

- Yozuvchi niyatini amalga oshiruvchi asosiy badiiy qurol hisoblanadi.

b) **Obraz sarlavha.** Bunday hikoyalarning obrazlari sarlavhaga olib chiqiladi. Aniqrog‘i, bosh obraz yoki obrazlar hikoya yuqorisidan joy oladi va asar nomlarida qahramonlarga urg‘u byerilib, syujet yo‘nalishi shu qahramonlar bilan bog‘liq ekanligiga ishora qilinadi [1, 146]. Cho‘lponning “Novvoy qiz”, Oybekning “Gulnor opa”, “Fanorchi ota”, M. Osimning “Shiroq”, T. Murodning “Bobosi bilan nevarasi”, Sh. Xolmizayev “Yozuvchi”, “Ustoz”, “Notanish odam” kabi asarlarining markazida bosh qahramonning turishi qissa janriga xos xususiyatlarni eslatadi. Ko‘rinadiki, bu kabi hikoyalarda qahramonlarning nasl-nasabi, kasb-hunari, laqabi va boshqa belgilarini bildiruvchi so‘zning o‘zi yoki izohlanmishi bilan hikoya sarlavhasiga aylanadi hamda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Hikoya tarkibidagi barcha unsurlar qahramonning ichki dunyosini ko‘rsatishga xizmat qiladi;

- Hikoya qahramonining portretiga yozuvchi prototipining noyob xislatlari ko‘chiriladi;

- Qalamkashning badiiy maqsadi bilan hikoya qahramonining taqdiri uyg‘unlashib, asar g‘oyasini tashkil etadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda ijodkor butun bir hikoyaning markaziga o‘z bosh qahramonini qo‘yadi.

s) **Syujet sarlavha.** Yuqorida asarga sarlavha tanlash vaqti haqida to‘xtalib, uni ikkiga bo‘lgan, ya’ni yozuvchi badiiy maqsadiga qarab, hikoyani yozishdan oldin, yoki undan keyin sarlavha tanlash haqida so‘z yuritgan edik. Syujet sarlavha, aynan, ikkinchi turga ko‘proq mansub bo‘lgan, so‘z ustasining voqealar rivojiga asoslanib tanlaydigan hikoya mavzulari turkumiga kiradi. Yozuvchi sarlavhadayoq, gap nima xususida borishi to‘g‘risida xabar beradi. Ya’ni hikoyada sodir bo‘ladigan voqea – hodisadan parcha ko‘rsatish vazifasini sarlavhaga yuklaydi. Xuddi tomchida quyoshni aks ettirgan kabi.

Mazkur usulda tanlangan sarlavha hikoyada yuz beruvchi butun bir voqelikni qamrab oladi. A.Qodiriyning “Uloqda”, “Jinlar bazmi”, Sh.Xolmirzayevning “Zov ostida”, “Navro‘z”, Q.Kenjaning “Baliq ovi”, A.A‘zamning “Avtobus” asarlari yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Bunda yozuvchining badiiy g‘oyasi syujet chizig‘iga singdirib yuboriladi. Kutilmagan o‘tkir syujetli tasodiflar bilan personajlar ruhiyatiga ta’sir o‘tkazishi, hikoya voqealarini bayon qilishda qahramon nutqidan foydalanish kabi xususiyatlarning ustuvorlik qilishi bu tur hikoyalarning o‘ziga xos jihatlarini belgilab beeradi.

2. **Ma’juziy sarlavha** ma’no ko‘chishining turli usullariga tayanadi. Sarlavhaga qo‘yilgan so‘z yoki so‘z birikmalari o‘zining “ikkinchi hayot”ini yashay boshlaydi. Aynan shu “ikkinchi hayot” hikoyaning asl mazmuni bilan jism va ruh kabi bir butunlikni tashkil qiladi. A. Qahhorning “O‘g‘ri”, Sh.Xolmirzayevning “Bodom qishda gulladi”, N. Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyalaridagi sarlavhalar ma’juziy ma’noga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, o‘z-o‘zicha didaktik-falsafiy, tanqidiy, qiyosiy ma’no kasb etadi. Majuziy sarlavhalar, o‘z navbatida, 3 ta tarkibiy qismga bo‘linadi:

a) **Kinoya sarlavha** – yozuvchining badiiy maqsadiga qo‘yilgan haykal vazifasini o‘taydi. A.Qahhorning “Byemor”, “O‘g‘ri”, “Ming bir jon”, “Mayiz yemagan xotin”, “Boshsiz chavandoz” hikoyalarning zamirida achchiq kinoya yotadi.

Bunday sarlavhalar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- Sarlavhaning butun hikoya mazmuniga teng kelishi – bunda yozuvchining badiiy maqsadi, hikoya syujeti ixcham shaklda sarlavha ko‘rinishini oladi. Asarni o‘qib chiqariladigan xulosa esa, sarlavha bilan teng bo‘ladi.



- Sarlavhaing polisyemantikligi – kinoya sarlavhaning mazkur xususiyatida ma’no tashqi va ichki(asl) turlarga bo‘linadi. Tashqi jihatdan u go‘yoki oddiy so‘z, lekin ichki tarafdin kinoya sarlavhaning xususiyatini “chaqilmagan yong‘oq”qa o‘xshatishimiz mumkin. Yozuvchilar ham o‘z asarlarining tub ma’nosini tashqi qobiq ichiga joylab, go‘zal poetik bo‘lakni yaratadilar.

- Sarlavhaning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi – bunda ijodkor hikoyada tasvirlayotgan voqea-hodisa, muammo, kamchiliklar, aynan, biror shaxsga, oilaga tyegishli bo‘lmasdan, balki butun jamiyatga aloqador bo‘ladi. Masalan, A. Qahhor o‘zining “Bemor” hikoyasi orqali butun jamiyatdagi illatlarni ko‘rsatib, shu “kasallik”ka chalingan ayrim “bedavolar”ni asl xastaga mengzaydi. Bunaqa holatni “O‘g‘ri”, “Ming bir jon”, “Mayiz yemagan xotin”, “Boshsiz chavandoz” kabi hikoyalarda ham ko‘rishimiz mumkin.

- Sarlavha mohiyatiga faqat hikoya mutolaasidan so‘ng yetib borilishi. Mutaxassislar sarlavhani hikoyaning “kalit”i deyishadi. Ammo kinoya sarlavhali hikoyalarda buning teskarisini kuzatishimiz mumkin. Masalan, “O‘g‘ri” hikoyasiga nima uchun mazkur nom tanlanganini uni o‘qib chiqmasdan turib tushunib yetishimiz, uning tagidagi kinoyani fahmlashimiz qiyin. Bu hol bir yoki bir necha so‘zning ma’nosini ochish uchun butun boshli hikoya matni kalit vazifasini bajarishidan dalolat.

b) **Tazod sarlavha** – ikki tushunchaning ziddi o‘laroq vujudga kyeladi. Bunday hikoyalardagi voqealar oqimi parallyel syujet chizig‘ida o‘z ifodasini topadi. Tabiat tasviri yozuvchining badiiy g‘oyasini ifodalovchi eng muhim vositaga aylanadi hamda hikoya personajlarining ruhiyatidagi evrilishlar tabiat hodisalariga qiyoslanadi. Ijodkorning noyob poetik topilmasi ramziy ma’no ifodalab, sarlavhaga chiqariladi. A.Cho‘lponning “Qor qo‘ynidagi lola”, Sh. Xolmirzayevning “Bodom qishda gulladi”, “Kuzda bahor havosi”, “Bulut to‘sgan oy”, Q.Norqobilovning “Qishdagi lola” kabilari shunday hikoyalar sirasiga kiradi.

v) **Falsafiy sarlavhalar** qo‘llangan hikoyalarda inson, jamiyat, olam va odam munosabati haqida gap boradi. Hikoyaga tanlangan sarlavha ham falsafiy mushohada mahsuli hisoblanadi. Bunday sarlavhalar yozuvchining badiiy niyatini emas, balki olam va odam tushunchasining mohiyatini anglashga da‘vat qiladi. Xuddi Sh. Xolmirzayevning “Odam”, “Olam tortishish qonuni”, Nurilloh Muhammad Raufxonning “etakdagi kulba”, “Chilla”, N. Eshonqulning “Bahovuddinining iti”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” kabi hikoyalari singari. Bunday hikoyalar ayrim nuqtalarda umumiylik kasb etadi va shu jihati bilan “yangi asar” atalishga loyiqdir. Bular: A) Voqyelikni idrok etish, badiiy ifodalash va unga munosabatda myetaforik

modyelning namoyon bo‘lishi; B) Badiiy talqinda assosiativ usul (hayolan ortga qaytish) ning yetakchiligi; C) Syujet va obrazlarning to‘laligicha metaforaga qurilganligi [2, 218-219]. Bir qarashda bunday sarlavhalar oddiy ifodaga o‘xshaydi. Lyekin ular hikoya matniga uyg‘unligi bilan mazmuni ochishda, voqealarni idrok etishda, falsafiy fikrlashda kitobxonga yordam beradi.

**3. Ruhiiy-emosional sarlavha.** Mazkur turdagi sarlavhalar qo‘llangan hikoyalarda g‘oyaviy, tanqidiy xarakterdan ko‘ra, ruhiy tasvir xususiyati ustunlik qiladi. Bu bilan ruhiy-emosional sarlavhali hikoyalar drama janrini eslatadi. Qaysidir ruhiy holatning butun asarda mujassam qilinishi sababli u sarlavha bo‘lib, hikoya tepasidan joy oladi. A.Qahorning “Dahshat”, Sh.Xolmirzayevning “Ko‘ngil”, “Nimadir yo‘q bo‘ldi”, A.Yo‘ldoshning “Yolg‘on va haqiqat”, N.Norqobilovning “Ayriliq quvonchi”, D.Saidovanning “Yig‘i” singari hikoyalari mazkur usul vositasida tanlangan sarlavhalari bilan yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi. A.Qahorning “Dahshat” hikoyasida yozuvchi boshidayoq tabiat tasviriga qo‘rquvni singdiradi va o‘quvchini “dahshat eshigi”dan olib kiradi. “Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g‘uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi.

Bunday kechalarda odamzod qo‘ymijoz, g‘uj bo‘lib va nimanidir kutib jimgina o‘tirishni xohlab qoladi” [6, 1]. Tabiatning vaqtinchalik “po‘pisa”si bilan boshlangan hikoya eng katta dahshatlardan biri bo‘lgan o‘lim bilan yakunlanadi. Butun hikoya mana shunday ruh ostida kechadi va bu ruh sarlavhaga aylanadi.

**4. Xronotop sarlavha.** Bunday sarlavhalar 2 xil bo‘lib, birinchisi, zamon-vaqt bilan bog‘liq sarlavhalar. Ikkinchisi, ma‘lum bir makon-joyga aloqador sarlavhalar. Makon-joyni ifodalovchi sarlavhali hikoyalar mazmunan keng, hajman kichik shaklda bo‘lib, bir jamiyat taqdiri yoki yagona insonlarning ichki olamini tasvirlash asosiy planga chiqadi. Hikoya janri sarlavhasidagi so‘z metaforik ma‘no kasb etib, ijodkorning badiiy maqsadi bilan poetik aloqaga kirishadi. O‘tkir Hoshimovning “Jintepa”, “Shaharlik kuyov”, Murod Muhammad Do‘stning “Dashtu dalalarda”, “Galatepaga qaytish”, Lo‘qmon Bo‘rixon “Qo‘noq” kabilar makon-joy sarlavhali hikoyalar sirasiga kiradi.

Xullas, sarlavha badiiy asarning muhim elementi sanaladi. O‘zbek hikoyalari sarlavha qo‘yish stilistikasi hikoya janri imkoniyatlarining o‘zgarish omillari bilan bog‘liq bo‘lib, yozuvchining badiiy mantig‘idan anglashiladi. Demak, o‘zbek hikoyalaridagi sarlavhalarning poetik xususiyati quydagilarda ko‘rinadi: Birinchidan, ijodkor uslubi, dunyoqarashi, badiiy niyati va so‘z qo‘llash mahoratida; Ikkinchidan, ijtimoiy hayot muammolarini tasvirlashda; Uchinchidan, hikoya janrining



taraqqiyotidagi yangilanish bosqichida; To‘rtinchidan, hikoya janrning imkoniyatlari – tasvir tarzi, hajm -me‘yori, syujet kompozitsiyasi jihatdan o‘zgarishida o‘z ifodasini topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, 2002. – B.470-473. 146
2. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2005. – B. 218-219.
3. Ibodinov A. “Bir tomchi yosh”, XX asr hikoyalari antalogiyasi. – Toshkent, 2009. – B.384.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.136.
5. Xolmirzayev Sh. Oqtosh (2-kitob). – Toshkent, 2005. – B.222.
6. Qahhor A. Daxshat (to‘plam). – Toshkent, 2007. – B. 1-5.